




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 19 396,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 6,6 % ni tashkil etib, 852,6 mlrd. so'm kiritildi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 12 151,8 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 93,4 % ulushini tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalar



**Markazlashgan moliyalashtirish  
manbalari hisobidan  
investitsiyalar tarkibi, ulushi %da**

**O'tgan yilning mos davriga  
nisbatan, %da**



**Markazlashmagan moliyalashtirish  
manbalari hisobidan  
investitsiyalar tarkibi, ulishi %da**

**O'tgan yilning mos davriga  
nisbatan, %da**



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 5 961,3 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 33,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,8 %i yoki 1 915,7 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 831,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,2 %ni tashkil etdi.

### **Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m**





Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 108,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,6 %ini), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 888,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,6 %ini), Respublika budjeti 707,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,6 % ini), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 57,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,3 % ini) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich korxona va tashkilotlarning o'z mablag'larida kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,8 % ga, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar mablag'lari tomonidan esa 370,10% ga o'sdi.

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,6 %ni tashkil etib, "Zarafshon Oyna" MChJ qo'shma korxonasi tomonidan deraza oynalari-shisha buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish va "JV CONTINAZ" MChJ qo'shma korxonasi tomonidan esa karbamid formaldegid konsentratini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*




## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan %da):						
		Respublika budgeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Navoiy viloyati:	19 396,1	3,6	30,7	9,9	54,9	0,3	0,6	-
shaharlar:								
Navoiy sh.	5 361,9	1,0	12,7	1,3	12,2	0,032	0,6	-
Zarafshon sh.	2 635,6	0,3	4,3	0,7	8,3	0,017	-	-
G'ozg'on sh.	141,9	0,1	0,2	0,0	0,4	0,013	-	-
tumanlar:								
Karmana	2 268,2	0,3	5,4	1,5	4,5	0,044	-	-
Konimex	503,2	0,2	1,8	0,5	0,2	0,001	-	-
Qiziltepa	791,7	0,5	0,9	1,3	1,4	0,027	-	-
Navbahor	514,8	0,5	0,9	1,0	0,3	0,004	-	-
Nurota	1 489,0	0,3	0,8	1,1	5,5	0,008	-	-
Tomdi	4 314,4	0,1	0,6	0,1	21,4	0,000	-	-
Uchquduq	241,7	0,1	0,6	0,3	0,3	0,008	-	-
Xatirchi	1 133,7	0,6	2,4	2,2	0,5	0,145	-	-

\*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

## 2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



## Navbahor tumani

*o'sish sur'ati*

112,7 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

514,8



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

2,7 %



## Nurota tumani

*o'sish sur'ati*

296,0 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

1489,0



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

7,7%



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

22,2 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

4314,4



*o'sish sur'ati*

117,4 %



**Tomdi tumani**

**Uchquduq  
tumani**

*o'sish sur'ati*

82,0 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

241,7



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

1,2 %



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

5,8 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

1133,7




*o'sish sur'ati*

111,8 %



**Xatirchi  
tumani**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida  
investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



*Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 296,0 %ga o'sib, Nurota tumanida kuzatildi. Bu asosan "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" aksiyadorlik jamiyati (Строительство комплекса по добыче и переработке золотосодержащих руд месторождения Пистали (ГМЗ-6))rudani qazib olishni tashkil etish va gayta ishlash ishlarini tashkil etish bilan bog'liq.*

*Shuningdek, G'ozg'on shahriida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149,2 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "GAZGAN STONE INVEST" MChJ Marmor plitalar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq.*

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning  
texnologik tarkibi, (%da)**



Navoiy viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 10 054,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 51,8 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 8 094,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 41,7 %) va boshqa xarajatlarga 1 246,5 mlrd. so'm (6,4 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida kuzatildi – 11,2 % yoki 2 168,8 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quyi daraja G'ozg'on shahrida kuzatilib, 0,4 %ni yoki 71,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 18,1 % yoki 3 508,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga  
investitsiyalarning takror  
ishlab chiqarish tarkibi  
(jami hajmdagi % da)**

Yangi qurilish-  
69,9 %

Kengaytirish,  
rekonstruksiya,  
modernizatsiya - 21,5 %

Boshqa yo'naliishlar -  
8,6 %



Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 13 558,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 69,9 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 4 169,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 21,5 %ini tashkil etdi. Qolgan 8,6 %i, ya'ni 1 668,5 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 13 248,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 85,2 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- metallurgiya sanoati – 5 557,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 28,7 %).
- boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish – 3501,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 18,1 %).

*Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
investitsiyalarning texnologik tarkibi*

*Jami hajmdagi ulushi %*

	<i>Qurilish montaj ishlari</i>	<i>Mashina, uskuna, inventarlar</i>	<i>Boshqa xaratjatlar</i>
<i>Navoiy viloyati</i>	<b>41,7</b>	<b>51,8</b>	<b>6,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
<i>Navoiy</i>	<b>11,2</b>	<b>13,6</b>	<b>2,9</b>
<i>Zarafshon</i>	<b>9,0</b>	<b>4,5</b>	<b>0,1</b>
<i>G'ozg'on</i>	<b>0,4</b>	<b>0,4</b>	<b>0,01</b>
<i>tumanlar:</i>			
<i>Karmana</i>	<b>3,6</b>	<b>6,5</b>	<b>1,6</b>
<i>Konimex</i>	<b>0,9</b>	<b>1,5</b>	<b>0,2</b>
<i>Qiziltepa</i>	<b>3,1</b>	<b>0,6</b>	<b>0,2</b>
<i>Navbahor</i>	<b>1,8</b>	<b>0,7</b>	<b>0,2</b>
<i>Nurota</i>	<b>4,2</b>	<b>3,0</b>	<b>0,5</b>
<i>Tomdi</i>	<b>4,0</b>	<b>18,1</b>	<b>0,2</b>
<i>Uchquduq</i>	<b>0,6</b>	<b>0,6</b>	<b>0,1</b>
<i>Xatirchi</i>	<b>3,2</b>	<b>2,3</b>	<b>0,3</b>


**Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda  
(2022- yil yanvar-dekabr)**

	Jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, mlrd. so'm		<i>shundan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	
	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>9 756,7</b>	<b>100,0</b>	<b>2 875,2</b>	<b>100,0</b>
Shaharlar:				
Navoiy	2 248,4	23,0	1 940,7	67,5
Zarafshon	1 610,3	16,5	5,8	0,2
G'ozg'on	69,7	0,7	69,7	2,4
tumanlar:				
Karmana	296,2	3,0	272,3	9,5
Konimex	32,1	0,3	32,1	1,1
Qiziltepa	62,1	0,6	47,2	1,6
Navbahor	60,5	0,7	40,1	1,4
Nurota	1 071,1	11,0	-	-
Tomdi	4 154,8	42,6	404,3	14,1
Uchquduq	55,3	0,6	32,2	1,1
Xatirchi	96,4	1,0	30,7	1,1


To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 5 897,3 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 289,7 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 77,9 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da**



*Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan  
Investitsiyalar hajmi, (ming so'mda)*



Joriy davrda jami umumiyligi maydoni 899,0 ming kv.m bo'lgan 2 912 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ularidan umumiyligi maydoni 707,2 ming kv.m bo'lgan 2 393 ta uy-joylar qishloq joylarda foydalanishga topshirilgan.



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi*

Aloqa telefonasi: (79) 223-54-73  
(71) 202-85-20